SAMARQAND VILOYATI BULUNG‘UR TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 22 - avgust 403-7-93-Q/22 Bulung’ur tuman hokimligi

Tumandagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida

“Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonunining 7, 20-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 348-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 172-sonli Qarori talablari ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

2. Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Otamuradov) va IIB YHXB (S.Bozorov)larga tuman umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatilishi bilan avtomobil yo‘li bo‘ylab avtomobillar harakatining o‘zgarishi munosabati bilan piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabbarov), “Bulung‘ur hayoti” gazetasi (G‘.O‘rolov) ushbu qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida hamda hokimlik rasmiy veb saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.


4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Elmuratov zimmasiga yuklatilsin.


Tuman hokimi **S.Astonov**

Bulung’ur tuman hokimining
2022 yil 22 avgustdagi
403-7-93-Q/22-son qaroriga
1-ilova

HOKIM QARORI

Tuman umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida





https://regulation.gov.uz/oz/d/65558